


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHARQ
IJTIMOIY
FANLAR
JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
СОЦИАЛЬНЫХ
НАУК

ORIENTAL
JOURNAL
OF SOCIAL
SCIENCES



ISSN 2181-2829

2025





PROSPECTS OF COOPERATION IN DEVELOPING ETHNOTURISM IN CROSS-BORDER REGIONS (on the example of Central Asia)

Bobir Odilov

*Associate Professor of Tashkent State University
of Oriental Studies, Doctor of Philosophy (PhD)
in Historical Sciences
Tashken, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Cross-border ethnotourism, Central Asia, Cultural heritage, Tourism infrastructure, Digital technologies, Regional cooperation, Economic development, Cultural exchange, Tourism destinations, Silk Road.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: The article analyzes the prospects for the development of cross-border ethnotourism in the Central Asian region. It is noted that the rich cultural and historical heritage of the region creates enormous potential for ethnotourism. Through ethnotourism, it is possible to enhance cultural exchange between peoples, preserve common historical monuments, and strengthen regional cooperation. It also discusses increasing the region's competitiveness in the international tourism market through measures such as improving infrastructure, introducing digital technologies, and promoting tourism facilities globally.

TRANSCHEGARAVIY MINTAQALARDA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI (Markaziy Osiyo misolida)

Bobir Odilov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Transchegaraviy et-noturizm, Markaziy Osiyo, Madaniy meros, Turizm infratuzilmasi, Raqamli texnologiyalar, Mintaqaviy hamkorlik, Iqtisodiy rivojlanish, Madaniy almashinuv, Turizm yo'nalishlari, Ipak yo'li.

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Mintaqaning boy madaniy va tarixiy merosi etnoturizm uchun ulkan salohiyat yaratishi qayd etiladi. Etnoturizm orqali xalqlar o'rtasida madaniy almashinuvni

kuchaytirish, umumiy tarixiy yodgorliklarni saqlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash mumkin. Shuningdek, infratuzilmani takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va turizm obyektlarini global targ'ib qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish orqali xalqaro turistik bozorda mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish muhokama qilinadi.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА В РАЗВИТИИ ЭТНОТУРИЗМА В ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕГИОНАХ (на примере Центральной Азии)

Бобир Одиллов

Доцент Ташкентского государственного университета востоковедения

Доктор философии (PhD) по истории

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: трансграничный этнотуризм, Центральная Азия, культурное наследие, туристическая инфраструктура, цифровые технологии, региональное сотрудничество, экономическое развитие, культурный обмен, туристические направления, Шелковый путь.

Аннотация: В статье анализируются перспективы развития трансграничного этнотуризма в Центральной Азии. Подчеркивается, что богатое культурное и историческое наследие региона создает огромный потенциал для этнотуризма. Через этнотуризм возможно усиление культурного обмена между народами, сохранение общих исторических памятников и укрепление регионального сотрудничества. Также рассматриваются мероприятия, такие как улучшение инфраструктуры, внедрение цифровых технологий и глобальная реклама туристических объектов, направленные на повышение конкурентоспособности региона на международном туристическом рынке.

Markaziy Osiyo xalqlari – o'z tarixi, boy madaniy merosi va etnik umumiyligi bilan xalqaro miqyosda muhim mintaqasi hisoblanadi. Bu hududdagi xalqlarning umumiy etnografiyasi, ularning an'analari va urf-odatlarini nafaqat turistlar uchun qiziqarli, balki o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlash uchun ham ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Mintaqaning strategik geografik joylashuvi uni savdo, madaniyat va aloqa markazi sifatidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun turizm salohiyatidan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Etnoturizmni rivojlantirish orqali mintaqadagi umumiy tarixi bo'lgan shaharlar va qishloqlarning madaniy va turistik salohiyati yanada ochiladi. Masalan, Samarqand, Buxoro va

Xiva kabi tarixiy shaharlar nafaqat O'zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo hududining umumiy madaniy merosi sifatida qaralishi mumkin. Qo'shni mamlakatlar bilan transchegaraviy turizm marshrutlarini tashkil etish orqali, ushbu madaniy yodgorliklarni xalqaro darajada tanitish imkoniyati yaratiladi. Bunday qadam nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki tarixiy yodgorliklarni asrash, hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash va mintaqadagi turistlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, etnoturizmning ahamiyati nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ham namoyon bo'ladi. Turizm orqali mintaqadagi xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va madaniy almashinuvni kuchaytirish mumkin. Ushbu ma'ruzada transchegaraviy etnoturizmning madaniy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyati, uni rivojlantirish uchun imkoniyatlar va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari atroflicha tahlil qilinadi.

Etnoturizm mintaqadagi boy madaniy va tarixiy merosni asrashda va uni zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim o'rin tutadi. Har bir hudud o'zining nodir madaniy obyektlari, an'anaviy san'at turlari va folklor merosi bilan ajralib turadi. Bular orasida tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik mahsulotlari, an'anaviy musiqiy va raqs san'ati turistlarni jalb qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Rishton kulolchiligi, Chust pichoqlari, Buxoro ipak mahsulotlari nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda tanilgan.

Transchegaraviy hamkorlik bu merosni saqlash va keng qamrovda targ'ib qilish imkoniyatini ochadi. Bunda mintaqamamlakatlari o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash, qo'shma loyihalar tashkil etish va turistik infratuzilmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim. Shunday hamkorliklar nafaqat merosni saqlashni, balki uni yangicha texnologiyalar yordamida raqamlashtirish va global darajada ommalashtirishni ham ta'minlaydi.

Hunarmandchilikning mahalliy turlarini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Masalan, qo'l mehnati asosida yaratilgan mahsulotlarning elektron savdosi va eksport yo'nalishlarini tashkil etish, hunarmandchilik maktablarini tiklash va ularni turizm bilan bog'lash mintaqaviy iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shadi. Shuningdek, madaniy tadbirlar, festivallar va ko'rgazmalar turistlar oqimini oshirish bilan birga, mahalliy aholining o'z madaniyatiga bo'lgan hurmatini kuchaytiradi. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, virtual muzeylar, 3D modellashtirish va mobil ilovalar orqali madaniy merosni saqlash va taqdim etishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Ushbu texnologiyalar yordamida turistlar hududga kelmasdan turib ham madaniy obyektlar bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ushbu raqamli vositalar mahalliy yodgorliklarning xalqaro darajadagi qiymatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Turizm transchegaraviy mintaqalar iqtisodiyoti uchun katta manba bo'lib xizmat qiladi. Etnoturizm nafaqat mahalliy hududlarda sarmoya jalb qilish, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi. Masalan, transchegaraviy turizm yo'nalishlari bo'ylab tashkil etilgan infratuzilmalar, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa turistik xizmat ko'rsatish obyektlari orqali mahalliy aholiga yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shuningdek, mazkur infratuzilmalar xalqaro turistlarning qulay va samarali sayohat qilishlariga imkon beradi.

Etnoturizmni rivojlantirish hududlarda qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantiradi. Bu jarayonga hunarmandchilik mahsulotlari savdosi, transport xizmatlari, ekskursiya va gidlik kabi yo'nalishlar ham jalb etiladi. Har bir mamlakat o'zining madaniy resurslari, masalan, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik markazlari va an'anaviy festivallari bilan xalqaro sayyohlarni jalb qilishi mumkin. Turistlarning oqimi ortishi mahalliy mahsulotlarga bo'lgan talabni oshiradi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishga turtki beradi.

Qo'shni davlatlar bilan umumiy turizm dasturlarini ishlab chiqish orqali transchegaraviy turizm qiymat zanjirini kengaytirish mumkin. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi birlashgan turizm yo'nalishlari, birgalikda o'tkaziladigan etnofestivallar va ko'rgazmalar turistlar oqimini ko'paytirishga yordam beradi. Shuningdek, ko'p davlatlarni qamrab oluvchi turistik mahsulotlar, masalan, Ipak yo'li bo'ylab sayohat kabi konsepsiyalar nafaqat turistik, balki iqtisodiy in-tegratsiya uchun ham xizmat qiladi.

Etnoturizm nafaqat iqtisodiy manfaat keltiradi, balki xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va madaniy almashinuvni kuchaytirish uchun ham kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi turli xalqlar o'zining boy madaniyati, urf-odatlar va turmush tarzi bilan ajralib turadi. Etnoturizm orqali turistlar nafaqat tarixiy obyektlar va madaniy tadbirlar bilan tanishadilar, balki mintaqaning xalqlari orasidagi o'xshashlik va farqlarni ham o'rganadilar. Bu jarayon o'zaro hurmatni kuchaytirish va madaniyatlar o'rtasida muloqotni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Madaniy festivallar, ko'rgazmalar va etnofestivallar kabi tadbirlar turistlar uchun yangi taassurotlar yaratadi va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiradi. Masalan, an'anaviy musiqa, raqs va milliy taomlarni namoyish qilish orqali nafaqat madaniyatni, balki mintaqaviy birlikni ham targ'ib qilish mumkin. Turizm yo'nalishlari orqali tashkil etilgan hunarmandchilik ustaxonalari va mahalliy mahsulotlar savdosi xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Shuningdek, etnoturizm xalqaro darajada mintaqalarni yaxshi-lashga yordam beradi. Markaziy Osiyo hududlari o'rtasidagi transchegaraviy etnoturizm yo'nalishlarini takomillashtirish va ularni birgalikda targ'ib qilish orqali mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi madaniy va siyosiy munosabatlar yanada mustahkamlanadi. Etnoturizm orqali mintaqadagi

xalqlar o'rtasida madaniyat almashinuvi amalga oshadi. Turistlar nafaqat madaniy boyliklar bilan tanishadilar, balki mintaqaning turli xalqlari urf-odatlarini, ovqatlanish madaniyati va hayot tarzini tushunishga ham ega bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida davlatlar o'rtasidagi madaniy va siyosiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Madaniy festivallar, ko'rgazmalar va etnofestivallar turistlarni qiziqtirib, o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

Transchegaraviy etnoturizm mintaqadagi tarixiy va madaniy merosni keng ommaga tanitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yo'nalishlarni yaratish nafaqat sayyohlar uchun qiziqarli turizm marsh-rutlarini taklif qiladi, balki mintaqadagi xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv va hamkorlikni ham rivojlantiradi.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida tarixiy aloqalarni ko'zlab ishlab chiqilgan yo'nalishlar, masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Xo'jand va Panjakent kabi shaharlarni qamrab olgan marshrutlar sayyohlarga bir vaqtning o'zida bir nechta madaniy va tarixiy davrlarni o'rganish imkonini beradi. Turistlar ushbu yo'nalishlarda nafaqat tarixiy yodgorliklar, balki mahalliy xalqlarning an'anaviy hayoti bilan ham tanishadi. Bu esa ularning sayohatdan oladigan taassurotlarini yanada boyitadi.

Shuningdek, Qirg'izistonning O'sh shahri va O'zbekistonning Andijon, Farg'ona kabi shaharlari orasida yo'nalishlarni tashkil etish mintaqa etnografik boyliklarini namoyon qilish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ushbu hududlardagi hunarmandchilik markazlari, an'anaviy bozorlar va milliy festivallar turistlarni nafaqat madaniy, balki ijtimoiy jihatdan ham boyitadi. Shu kabi yo'nalishlarning tashkil etilishi in-fratuzilma rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Turizm yo'nalishlarini takomillashtirish uchun qo'shimcha in-fratuzilmalar, transport aloqalari va sayohatchilar uchun qulay xizmatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, transchegaraviy turizm marshrutlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish orqali Markaziy Osiyo davlatlari jahon turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Samarqand, Buxoro, Xiva (O'zbekiston), Xo'jand, Panjakent (Tojikiston) kabi tarixiy shaharlar nafaqat mintaqadagi, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu shaharlarning birlashgan turizm yo'nalishlari orqali tashkil etilishi turistlarga bir vaqtning o'zida turli tarixiy davrlarni qamrab olgan sayohatni taqdim etishi mumkin. Bunday marshrutlar sayyohlar uchun madaniy boyliklar va tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. Qirg'izistonning O'sh shahri va O'zbekistonning Andijon, Farg'ona vodiysi hududlari orqali o'tadigan yo'nalishlar mintaqaning etnografik boyliklarini ko'rsatishga mo'ljallangan. Bu hududlardagi hunarmandchilik markazlari, an'anaviy bozorlar va mahalliy an'analar turistlar uchun katta qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, qo'shma tadbirlar va festivallarni tashkil etish orqali transchegaraviy turizm salohiyatini yanada rivojlantirish mumkin.

Shu kabi yoʻnalishlarni amalga oshirish infratuzilmani yaxshilash, transport aloqalarini rivojlantirish va transchegaraviy hamkorlikni mus-tahkamlashni talab qiladi. Turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali Markaziy Osiyo mintaqasi jahon turizm bozoridagi oʻrnini yanada mustahkamlashi mumkin .

Markaziy Osiyoning etnoturizm salohiyatini umumiy brend sifatida xalqaro darajada targʻib qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu mintaqada turli etnik va madaniy boyliklari bilan dunyo sayyohlari uchun jozibali nuqta boʻlishi mumkin. Bunda milliy oʻzlikni namoyon etuvchi ramzlar, hunarmandchilik mahsulotlari, anʼanaviy festivallar va tarixiy yodgorliklardan keng foydalanish talab etiladi .

Markaziy Osiyo davlatlari birgalikda quyidagi yoʻnalishlarda harakat qilishlari mumkin: Rishton kulolchiligi, Chust pichoqlari, Buxoro ipaklari kabi mashhur mahsulotlarni global brendga aylantirish orqali xalqaro boʻzorda mintaqaning mavqeyini oshirish. Qoʻshma etnofestivallar, milliy raqs va musiqa kechalari, anʼanaviy osh festivallari kabi tadbirlar orqali mintaqaning turistik salohiyatini namoyon etish.

Masalan, Ipak yoʻlini markaziy mavzulardan biri sifatida targʻib qilish orqali mintaqaning umumiy tarixi va merosini namoyon etish. Bunday qadamlar nafaqat turistik oqimni koʻpaytirish, balki Markaziy Osiyoning milliy qadriyatlarini global darajada ommalashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mintaqaviy brendning yaratilishi har bir mamlakatning individual salohiyatini ham ochib berishga yordam beradi, bu esa umumiy hamkorlik uchun yangi platformalarni yaratadi.

Transchegaraviy etnoturizmni rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi yoʻnalishlarga eʼtibor qaratish zarur:

Markaziy Osiyo mamlakatlari oliy taʼlim muassasalari oʻrtasida transchegaraviy etnoturizm boʻyicha qoʻshma tadqiqotlar va taʼlim dasturlarini tashkil etish. Bu jarayonda xalqaro konferensiyalar, ilmiy sessiyalar va seminarlarni oʻtkazish orqali mintaqaviy bilim almashinuvini ragʻbatlantirish mumkin.

Mintaqadagi madaniy merosni raqamlashtirish, virtual muzeylar yaratish va mobil ilovalarni ishlab chiqish. Bu texnologiyalar turistlar uchun maʼlumotlarni oson yetkazib berish bilan birga, mintaqaning global darajada targʻib qilinishiga yordam beradi. Yuqorida qayd etilgan maʼlumotlardan kelib chiqib, baʼzi amaliy tavsiyalarni qayd etish lozim. Xususan, mintaqada Transport va chegara xizmatlarini yaxshilash, yangi turistik obyektlarni qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish orqali qulay sayohat sharoitlari yaratish. Shuningdek, chegara oʻtish jarayonlarini soddalashtirish va turistlar uchun qulay infratuzilma taʼminlash muhim. Navroʻz, etnofestivallar, hunarmandchilik koʻrgazmalari kabi tadbirlar mintaqaviy hamkorlikni

kuchaytiradi, turistlar oqimini oshiradi va madaniy almashinuvga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar turistlarga mintaqa madaniyatini chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratadi. Axborot platformalari, mobil ilovalar, raqamli xari-talar va virtual ekskursiyalar orqali turistlarga qulay xizmatlar taqdim etish. Shuningdek, madaniy obyektlarni raqamlashtirish va ularni jahonga tanitish mintaqaning madaniy merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasi transche-garaviy etnoturizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishdagi chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy manfaat keltiradi, balki mintaqaviy barqarorlik va madaniy hamkorlikni mustahkamlaydi. Transchegaraviy etnoturizm mintaqadagi tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash, uni xalqaro darajada ommalashtirish hamda mahalliy aholining daromad manbalari va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Etnoturizm orqali hududlar o'rtasida o'zaro tushunish va madaniy al-mashinuvni kuchaytirish mumkin. Bu jarayon nafaqat mintaqaviy madaniy birlikni shakllantirishga, balki xalqaro maydonda Markaziy Osiyoning ijobiy imijini yaratishga xizmat qiladi. Etnoturizmning rivojlanishi infratuzilmani yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va transchegaraviy hamkorlikni mustahkamlash kabi yo'nalishlardagi yangilanishlarga turtki beradi.

Mintaqaning boy etnomadaniy merosini keng targ'ib qilish uchun qo'shma festivallar, ko'rgazmalar va hunarmandchilik yarmarkalari tashkil qilish muhimdir. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning samarali qo'llanilishi madaniy obyektlarni global auditoriyaga tanitish imkoniyatini oshiradi. Zamonaviy axborot platformalari, raqamli arxivlar va onlayn xiz-matlar turistlarga sayohatlarni oson va samarali rejalashtirish imkonini be-radi.

Shu bilan birga, transchegaraviy etnoturizm mintaqaning umumiy iqtisodiy taraqqiyoti va madaniy merosini saqlashdagi o'rnini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin. Mintaqaning tarixiy yo'nalishlari va etnografik boyliklari xalqaro turistlar uchun jozibador marshrutlarning shakllanishiga yordam beradi. Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar va in-novatsion loyihalar esa mintaqaviy hamkorlikning yangi qirralarini ochib beradi.

Etnoturizm, shubhasiz, Markaziy Osiyoning madaniy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi uchun muhim mexanizm bo'lib, uning rivojlanishi mintaqani jahon turizm bozorida muhim o'ringa qo'yadi va xalqlar o'rtasidagi madaniy bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). Science and innovation, 3(Special Issue 46), 507-510.
2. Odilov, B. (2018). Characteristics of economic activity of the population of Fergana

valley in XIX and at the beginning of XX centuries. International Journal of Development Rezerch (IJDR), 8(10), 23827-23829.

3. Doniyorov, A., Khaydarov, I., Alimova, R., Asadova, S., Askarov, M., & Odilov, B. A. (2023). Historical roots of interethnic harmony and tolerance in Uzbekistan. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2535-e2535.

4. Odilov, B. (2020). Ўзбекларнинг анъанавий хўжалик фаолияти ҳақида айрим маълумотлар. Республика XII илмий-назарий конференцияси материаллари, 2(12), 121-125.

5. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.

6. Sayfullaev, D., Odilov, B., & Karimov, N. (2023). The impact of Soviet rule on the cultural identity of Uzbekistan: a comparative analysis. SGS-Engineering & Sciences, 2(02).